

ABU ALI IBN SINONING IJTIMOYIY-FALSAFIY QARASHLARI

Rixsiyeva Maftuna Tohir qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrasi sotsiologiya yo'nalishi talabasi
maftunariksieva@gmail.com*

Annotatsiya: *Bu maqolada buyuk olim Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy nazariyalari, fikrlari o'rganiladi. Allomaning davlat boshqaruvi, mehnat taqsimoti, jamiyatni tirik organizmga o'xshatishi va axloqiy kamolotning muhim qismlari ko'rib chiqiladi. Abu Ali ibn Sinoning fikrlari Aristotel va Farobiyning qoldirgan ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda, boshqacha tarzda talqin qilingani, falsafa va tabobatning birlashgan shakllari alohida o'rganiladi. Bundan tashqari allomaning oila va gender, ta'lim haqidagi fikrlashlari ham e'tiborga olinadi. Bizning davlatimiz uchun muhim tarflari, masalan, milliylikni qadrlash, davlat boshqaruvlari va ta'limdagi yangi yo'llarni o'rganishga e'tibor qaratilganligida.*

Kalit so'zlar: *Abu Ali ibn Sino, ijtimoiy-falsafiy, mehnat taqsimoti, jamiyat-tirik organizm, falsafa va tabobat, oila va gender, davlat boshqaruvi, ta'lim.*

ABU ALI IBN SINA'S SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS

Abstract: *This article examines the socio-philosophical theories and thoughts of the great scientist Abu Ali ibn Sina. The scientist's views on state administration, division of labor, the likening of society to a living organism, and important aspects of moral perfection are examined. Abu Ali ibn Sina's thoughts, based on the information left by Aristotle and Al-Farabi, are interpreted differently, and the combined forms of philosophy and medicine are studied separately. In addition, the scientist's thoughts on family and gender, education are also taken into account. Important aspects for our state, for example, are focused on the study of new ways in national values, state administration, and education.*

Keywords: *Abu Ali ibn Sina, socio-philosophy, division of labor, society as a living organism, philosophy and medicine, family and gender, public administration, education.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются социально-философские теории и мысли великого учёного Абу Али ибн Сины. Рассматриваются взгляды учёного на государственное управление, разделение труда, уподобление общества живому организму и важные аспекты нравственного совершенства. Мысли Абу Али ибн Сины, основанные на сведениях, оставленных Аристотелем и Аль-Фараби, интерпретируются по-разному, а также отдельно изучаются*

соединённые формы философии и медицины. Кроме того, рассматриваются размышления учёного о семье и гендере, образовании. Важные для нашего государства аспекты, например, сосредоточены на изучении новых путей в национальных ценностях, государственном управлении и образовании.

Ключевые слова: *Абу Али ибн Сина, социальная философия, разделение труда, общество как живой организм, философия и медицина, семья и гендер, государственное управление, образование.*

KIRISH

Buyuk olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) faqatgina tibbiyot, fizika, matematika, astronomiya kabi sohalarida emas, bundan tashqari ijtimoiy fanlarga va falsafa ilmiga ham o'z hissasini qo'shgan buyuk allomadir. Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy fikrlari uning "Kitob ash-shifo"¹¹⁰, „Al-ishorat vattanbihot“¹¹¹, „Hikmat almashriqiyn“,¹¹² „Kitob al-ishorat filmantiq va hikmat“¹¹³, „Donishnoma“¹¹⁴ asarlarida tasvirlangan hisoblanadi. Mutaffakkirning falsafaga doir eng yirik va muhim asari „Kitob ash-shifo“dir. Bu asar 4 qismdan iborat: mantiq, tabiiyot, riyoziyot va metafizika yoki ilohiyot.

Abu Ali ibn Sino yashagan davr X asr oxirlari va XI asr boshlarida Xuroson va Markaziy Osiyoda siyosiy tartibsizlik vujudga kelgan, shahar hayotining rivojlanish davri edi. Shunday vaziyatda hukmdor va aholi munosabatlari, jamiyatni tartibga solish, dinning va limning bog'liqliklari kabi vaziyatlar ahamiyatli edi. Mutaffakkir shu kabi muammolarga o'zining falsafiy taraflama yechimlarini taklif qildi.

Ushbu maqolaning maqsadi Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlardagi asosiy qismlarini aniqlash va ularni hozirgi kunda mamlakatimizdagi ijtimoiy-gumanitar sohalar uchun kerakli taraflarini ko'rsatishdan iborat.

Maqolaning vazifasi olimning jamiyat va davlat haqidagi fikrlari shakllanishidagi manbalarni topish, jamiyatni tirik organizm ko'rinishida talqin qilganini va mehnat taqsimotidagi nazariyalarini o'rganish, ideal hukmdor nazariyasini tushuntirish, axloqiy kamolot masalasini ko'rib chiqish va allomaning nazariyalari bugungi kunda qanchalik ahamiyatli ekanligini o'rganishdan iborat.

ASOSIY QISM. 1. Allomaning ijtimoiy-falsafiy qarashlari shakllanishidagi manbalar. Abu Ali ibn Sino o'zining ijtimoiy-falsafiy nazariyasini yaratishda bir qancha an'anani tahlil qilgan. Ulardan eng muhimi Aristotel merosi hisoblanib, u "Siyosat" asaridagi davlat va jamiyat haqidagi ma'lumotlarni o'rgangan. Bundan tashqari, Farobiyning "Fozil odamlar shahri" va „Siyosat al-madaniya“ asarlari ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

¹¹⁰ Kitob ush-Shifo — XI asrda, Hamadan va Isfahonda, Abu Ali ibn Sino tomonidan, arab tilida yozilgan.

¹¹¹ Al-Ishorāt va at-Tanbihāt – Ibn Sino yozgan; XI asr boshlarida yaratilgan; Hamadon yoki Isfahonda yozilgan; nashriga qarab taxm. 400–500 bet.

¹¹² Hikmat al-Mashriqiyyin – Ibn Sino yozgan; XI asr boshlarida yaratilgan; ehtimol Isfahon yoki Hamadonda yozilgan; asar to'liq saqlanmagan, mavjud qo'lyozmalar taxm. 100–150 bet atrofida.

¹¹³ Kitob al-Ishorāt fi al-Mantiq va al-Hikmat – Ibn Sino yozgan; XI asr boshlarida yaratilgan; Hamadon yoki Isfahonda yozilgan; nashriga qarab taxm. 350–450 bet.

¹¹⁴ Donishnoma – Ibn Sino yozgan; XI asr boshlarida yaratilgan; Isfahonda yozilgan; o'zbekcha/for s nashrlariga qarab taxm. 250–350 bet.

Biroq Abu Ali ibn Sino bu asarlarni va undagi fikrlarni shunchaki nusxa qilib olmagan, undagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilgan va o'z fikrlari bilan qayta ishlagan. Misol uchun, Abu Nasr Farobiy jamiyatni „fozil shahar“ tushunchasi bilan tushuntirsa, Abu Ali ibn Sino bu tushunchani haqiqiy hayotga yaqinroq qilib, aholining turli qismlarini har xil hunarlarga bo'lib o'rgangan. Shuningdek, olim nubuwvat masalasini ham falsafaga kiritgan va Abu Nasr Farobiydan farqli tarzda, hukmdor faqat bilimdon, aqlli bo'lishi bilan cheklanmaydi, balki u ilohiy ilhom bilan ham bog'liqligi bor deb hisoblaydi.

2. Jamiyatni tirik organizm ko'rinishida talqin qilish. Abu Ali ibn Sino jamiyatni tirik organizmga qiyoslaydi: „Jamiyat a'zolari o'zaro hamkorlikda bo'lmasa, u yashay olmaydi“¹¹⁵ unda yurak o'rnida hukmdor, aql o'rnida fuzalo va olimlar qo'l-oyoq o'rnida bo'lsa, hunarmandlar va dehqonlar turadi deydi. Bular u uchun faqatgina qiyoslash emas, balki jamiyatni adolatli qurishning muhim tamoyili edi. Agar qaysidir a'zo o'zining vazifasini to'liq bajarmasa, butun tana aziyat chekadi. Mehnat taqsimoti haqida esa u zamonaviy nazariyaga yaqinlashadi: „Bir kishi bir ish bilan shug'ullansa, uni mukammal darajada bajaradi, agar ko'p ish bilan ovora bo'lsa, hech birini to'kis qila olmaydi“¹¹⁶. U bu gapni „Shifo“ kitobining tabiiyot qismida ta'kidlaydi.

3 „Ideal hukmdor“ kontseptsiyasini tushuntirish. Mutaffakkir ideal hukmdorni tasvirlaganda uch asosiy jihatlarni birlashtiradi: nubuwvat (ilohiy ilhom), falsafiy aql va tabobat ilmi¹¹⁷. Bu asosiy uchtalik Farobiyda yo'q edi. Ibn Sino fikriga ko'ra, hukmdor jamiyatning „yuragi“ bo'lgani sababli, u faqatgina davlatni boshqarishi emas, undan tashqari xalqni ahvolini anglashi, agar xalqda muammo bo'lsa uni tuzata oladigan davolovchi shaxs ham bo'lishi kerak.

4. Axloqiy kamolot va ijtimoiy baxt masalasini ko'rib chiqish. Alloma uchun baxt faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ibn Sino „baxt nafsning o'z kamolotiga yetishi“ deya ta'riflaydi, ammo bu kamolot jamiyat tashqarisida amalga oshmaydi. U baxtni uch toifaga ajratadi¹¹⁸:

- eng quyi – tana lazzatlari;
- o'rta – ijtimoiy e'tirof va boylik;
- eng oliy – aqliy va axloqiy.

Uchinchi darajadagi baxtga faqatgina jamiyatda boshqalarga ham foyda keltiradigan insongina erisha oladi.

5. Allomaning nazariyalari bugungi kunda qanchalik ahamiyatli ekanligi. Hozirgi kunda mamlakatimizda milliylikni mustahkamlash, davlat boshqaruvini yaxshilash va ta'lim tizimini takomillashtirish muhim masalalardir. Ibn Sinoning qoldirgan meroslari ushbu yo'nalishlarda ko'p imkoniyatlarni beradi. Masalan, jamiyatga tirik organizm sifatida qarash, korrupsiya va byurokratiyaga qarshi turishda foydali. Har bir davlat xodimi o'z „a'zosi“ni „sog'lom“ligi uchun mas'ul, ideal hukmdor talabini esa hozirgi

¹¹⁵ „Tib qonunlari“ („Al-Qānūn fī at-Tibb“) Arab nashrda 1-jild, 10–20-betlar

¹¹⁶ Abu Ali ibn Sino Kitāb al-Dānishnāmā fī al-'Ulūm

¹¹⁷ Хайруллаев М. Абу Али ибн Сина-великий мыслитель Средневековья. Ташкент: Фан, 1985. Б. 212-215

¹¹⁸ Гонбов Г. Ибн Сино ва унинг ижтимоий-сиёсий қарашлари. Тошкент: Ўзбекистон, 1980

kunda malakali rahbarlar tayyorlashda ishlatish mumkin, ta'lim sohasida bo'lsa mutaffakkir bolalarni uch yoshidan tarbiya berishni taklif bergandi, bu esa bugungi kundagi boshlang'ich ta'lim va o'n bir yillik majburiy o'quv tizimlari bilan ancha mos keladi, gender tengligi haqida bo'lsa u ayollarni aqliy qobiliyatlari erkaklarniki bilan tengligini ta'kidlagan va bu ham hozirgi kundagi gender tengligi haqidagi siyosatlarga asos bo'la oladi.

Umuman olib aytganda, Abu Ali ibn Sino qoldirgan merosi faqat tarix emas, balki hozirgi rivojlanish davridagi muammolarni hal etishda qo'llaniladigan muhim manba sifatida qayta o'rganilmoqda.

Xulosa. Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlari Sharq falsafiy oqimining eng yuqori bosqichlarini tashkil qiladi. Shu bilan birga, uning falsafiy qarashlari faqat o'z davridagi emas, balki zamonaviy davrdagi muammolarga ham yechim hisoblanadi. Uni faqat o'rta asrlar emas, balki zamonaviy ijtimoiy falsafa uchun ham muhim mutaffakkirga aylantirishda davlat boshqaruvi, mehnat taqsimoti, jamiyatni tirik organizmga qiyoslashi, kasbiy bo'linish muhimligini isbotlashi, falsafa va tibbiy ilmning birligini talab qilishi muhim rol o'ynadi.

Shunday qilib, Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlari nafaqat o'tmishning, balki kelajakning ham boyligi hisoblanadi. Uning qarashlarini o'rganish va zamonaviy davrga tadbiq qilish, har bir sohada yetuk bo'lish va rivojlanish uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibn Sino. ash-Shifo (Tabiiyot va ilohiyot gismi). - Tehran: Intishoroti Nosir Xusrav, 1383 h.q.
2. Ibn Sino. Danish-noma-i Alai (Falsafa qismi). - Toshkent: Fan. 1957
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Shara, 1999
4. Умаров Э. Ибн Сино ва замонавий фалсафа. — Тошкент: Universitet, 2007